

SOG'INCHLI KO'ZLAR!

Yo'ldosheva Farangiz Sayfiddin qizi

Toshkent davlat transport universiteti

Yurisprudensiya (xalqaro transport huquqi) 2-bosqich talabasi

yoldoshevafarangiz311@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ikki xalqning buyuk dilbandi maqsud Shayxzodaning “Ko’zlar” she’rining keng sharhiga bag’ishladik. She’r juda qisqa ya’ni to’rt misradan iborat bo’lsa-da, unig otashin harorati tanamizni larzaga keltiradi.

Kalit so’zlar: ko’zlar, muhabbat, sevgi, otash, yurak, ko’ngil, nigok, nikoh, hayajon.

LONGING EYES!

Yoldosheva Farangiz Sayfiddinovna

TASHKENT STATE TRANSPORT UNIVERSITY

Jurisprudence (international transport law) 2nd stage student

yoldoshevafarangiz311@gmail.com

Abstract. In this article, we have devoted a wide review of the poem "Eyes" by Maksud Sheikhzadeh, a great lover of both nations. Although the poem is very short, i.e. consists of four lines, the heat of the firework makes our body tremble.

Key words: eyes, love, love, fire, heart, soul, sight, marriage, excitement.

ТОСКУЮЩИЕ ГЛАЗА!

Юлдошева Фарангиз Сайфиддиновна.

ТАШКЕНТСКАЯ ОБЛАСТЬ ТРАНСПОРТНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

Юриспруденция (международное транспортное право) студент 2 ступени

yoldoshivafarangiz311@gmail.com

Абстрактный. В этой статье мы посвятили широкий обзор стихотворения «Глаза» Максуда Шейхзаде, большого любителя обоих народов. Хотя стихотворение очень короткое, т. е. состоит из четырех строк, жар салюта заставляет наше тело дрожать.

Ключевые слова: глаза, любовь, влюбленность, огонь, сердце, душа, взгляд, брак, волнение.

Zamonaviy tilda “Go’zallik-dunyoni qutqaradi” degan go’zal jumla bor. Darhaqiqat, nafaqat ichki go’zallik balki tashqi go’zallikning ham hayotda juda muhim o’rin tutadigan jabhalari bor. Ayniqsa, shoir Maqsud Shayxzoda tomonidan oshiq yigit

tilidan hikoya qilingan “Ko’zlar” she’ri g’oyatda go’zal tarzda bitilgan.

Qancha nafis edi uning nigohi,
Suzilib boqqanda u goh-gohi –

ko’zlar orqali inson haqida juda ko’plab ma’lumotlarni bilish mumkin deydi ulug’ xalqimiz. Darhaqiqat, inson ko’zi orqali suhbatdoshizni sehrlashi mumkin ekan. Oshig’-u beqaror tilidan so’zlangan ushbu jumlada uning nigohlari juda nafis ekanligi, kishini o’ziga bir qarashda rom eta oladigan darajada ekanligi ta’kidlangan.

Ayniqsa, u suzilib, noz-u karashma bilan boqqanda insonning yuragidagi barcha ajib hislari mavj urib ketishinini shoir juda soda so’zlar bilan o’quvchiga aniq tushuntirib bergan.

Albatta inson yashar ekan u hayotning har bir sahnasida o’ziga haqiqiy suyanchiq, har qanday vaziyatda ham uning holatini tushuna oladigan, har qanday vaziyatda ham uning gaplarini jon qulog’i bilan eshita oladigan bir yurak xohlaydi. U inson kim uchundir yaqin do’sti bo’ladi va yo kim uchundir suyukli yori. Fransuz yozuvchisi Gi de Mopasson o’zining “Azizim” asarida “Muhabbat hayotning eng go’zal mevasidir. Biz o’zimiz uni turli shartlar qo’yib vayron qilamiz” degan edi. Ko’nglingiz istagan insonni avvalambor kutishni bilish kk deb o’ylayman. Chunki har neda bir xayr bor. Balki hozir uni sizning yoningizda bo’lmaganligi bu juda katta yaxshilik alomatidir. Oylab qolasan kishi, balki u hech qachon kelmas, balki bularning har biri qachonlardir bo’lgan go’zal sevgidan qolgan xotiralarning achchiq nolasidir deya. Nima qilish kerak? Qay biri eng to’g’risi? Tushunolmaysan kishi!

Ko’ngil va aql ‘rtasidagi so’ngsiz jangler seni bora-bora tamom qilayotgandek. Oxirida nima bo’ladi? Buni Yaratgandan boshqa hech kim bilmaydi. Bilasizmi eng alam qilarlisi nimada “shunchaki uning bu dardlaringizdan umuman xabari yo’q”. Alamli-a? Lekin baribir men oxirigacha boorish kerak degan fikr tarafdoriman. Atrofingizdagilar bu fikringizga mutlaqo qarshi. Ularning bilib olganlari faqat bitta so’z. “Qo’ysangchi bo’ldi endi uni unut!”. Juda og’ir botadi, rosti. “Nahotki?” degan savollar tun-u kun ich-etingizni kemiradi. Go’yoki atrofingizda sizdan boshqa hamma baxtlidek. Butun dunyoning g’am-u tashvishlari, baxtsizliklari sizning ko’nglingiz mehmonidek. Ammo shunday damlarda men faqat Alloh deyish kerak hammasiga, barcha-barchasiga deyman. Chunki Alloh siz uchun xayrli bo’lgan narsalarni sizdan ko’ra yaxshiroq va aniqroq biladi. Ko’nglingizdan o’tayotganlarini Allohga izhor qiling xolos. Qolganiga Alloh podsho. Bir kun kelib biz orzu qilib kutgan kunlar kelganida hozirgi holatingizni kulib eslaysiz. Zero shunday ekan, ko’nglimdan chiqayotgan yagona sas “Allohim, duolarimda so’raganlarimni umrimning eng go’zal haqiqatiga aylantir” bo’ladi.

O’ylandim go’zallik bilan ko’zlarning
Azaldan o’qilgan mangu nikohi...

Shoir demoqchiki, ko’zlar orqali ikki qalbning bir-biriga bo’lgan muhabbati

gavdalanadi. Go'zal yor o'z ko'zlari bilan bir yigitni oshig'-u beqarorga aylantira olishi haqida so'z ketyapti bu jumalarda.

“Iroda, matonat yo'q joyda sevgi haqida umuman so'z bo'ishi mumkin emas. Gohida muhabbat menga qanaqadir kompyuter qurilmasiga o'xshab ko'rinadi. Agarda ko'zga ko'rinmas bironta kichik murvat ishdan chiqsa, bas butun boshli murakkab buyum sariq chaqaga ham qimmat bo'lib qoladi” deydi Chingiz Aytmatov.

Bu borada “Hayotga muhabbat uyg'otmoq uchun ozgina umidning o'zi kifoya. Ikki-uch kundan so'ng esa umid yo'qolishi mumkin-u, ammo o'rtada muhabbat tug'ilib qoladi” deydi Stendal.

Foydalanilgan adabiyotlar(REFERENCES)

1. <https://saviya.uz>
2. <https://library.ziyonet.uz>
3. Ibratlar.uz
4. Azizim. Gi de Mopasson
5. Aforizmlar.Chingiz Aytmatov
6. Aforizmlar.Stendal